

## Andijon viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020-yilning yanvar- sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

8 214,7  
mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



104,5 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'ati

102,5 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmining o'sish  
sur'ati

2020-yil  
yanvar-sentabr

2 607,9  
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

Andijon viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlar-ga ko'ra, 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8 214,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1 091,2 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.



**O'sish sur'ati**

• 104,5 %

**Hajmning oshishi**

• 1 091,2 mlrd. so'mga

**Xizmatlar hajmi**

• 8 214,7 mlrd. so'm

**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)


|                                                                                        | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da |
|----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|--------------------------------------------------|
| <b>Xizmatlar - jami</b>                                                                | <b>8 214,7</b>       | <b>104,5</b>                                     |
| <i>shu jumladan:</i>                                                                   |                      |                                                  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                  | 413,3                | 111,7                                            |
| Moliyaviy xizmatlar                                                                    | 1 668,4              | 128,6                                            |
| Transport xizmatlari                                                                   | 1 808,9              | 102,5                                            |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari                                                 | 1 768,8              | 104,8                                            |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                      | 125,9                | 86,3                                             |
| Savdo xizmatlari                                                                       | 2 545,2              | 99,2                                             |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                  | 211,9                | 89,0                                             |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                            | 332,6                | 106,9                                            |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                 | 130,9                | 79,9                                             |
| Ijara xizmatlari                                                                       | 174,2                | 96,3                                             |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 167,3                | 91,3                                             |
| Shaxsiy xizmatlar                                                                      | 364,6                | 94,3                                             |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 69,1                 | 78,5                                             |
| Boshqa xizmatlar                                                                       | 202,4                | 99,4                                             |

2020-yil  
yanvar-sentabr

Andijon viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omillardan biri, ta'lim sohasidagi xizmatlar 11,9 % ga, transport xizmatlari 0,7 % ga o'sishi hisoblanadi. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil etdi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 31,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,0 %), moliyaviy xizmatlar (20,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,0 %) qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 0,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulushlar yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 1,5 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,6 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,0 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 2,1 %, hissasiga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,  
2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da  
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (28,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (6,9 %), qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi (21,5 % ga) sezilarli darajada pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (20,1 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (13,7 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (11,0 % ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (8,7 % ga) shuningdek, shaxsiy xizmatlarda (5,7 % ga), pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,0 % ni tashkil etib, bu 2 545,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining 85,6 % ga to'g'ri keladi.



## Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 8,0 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi**  
1 668,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi**  
20,3 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan**

**403,8 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi**  
kuzatildi.



**Ularning o'sishi 28,6 % ni tashkil etdi.**

2020-yil  
yanvar-sentabr

Andijon viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 86,9 % ni tashkil etadi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi 9,7 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 3,4 % oralig'ida qayd etildi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)




2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 413,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 111,7 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,7 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,2 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,2 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 1,2 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 332,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.



**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 86,3 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 125,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 1,5 % ni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 92,3 % bilan ustunlik qiladi.

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 130,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 79,9 % ni tashkil etdi.



|                                      |                  |
|--------------------------------------|------------------|
| Xizmatlar hajmi                      | 130,9 mlrd. so'm |
| O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati | 79,9 %           |
| Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi  | 1,6 %            |

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 607,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil etdi.



2019- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan

➤ Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

➤ Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.



## 2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlar soni - 22 178 birlikda

Ularning umumiy  
sonidagi ulushi -  
62,2 %

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish sur'atlari -  
111,8 %



## 2020-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 62,2 %, sanoat - 22,7 %, qurilish - 8,5 % ga yetdi va atigi 6,6 % i

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (43,9 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,8 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 2,4 % ga teng bo'ldi.


**Ma'lumot uchun:** 2019-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 19,8 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 40,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,6 %, tashish va saqlash - 6,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,6 %, axborot va aloqa - 2,8 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 39,0 % ni tashkil etgan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 20,2 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,6 mingtaga ko'paydi va 9,7 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 15,4 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,2 mingtaga ko'paydi va 1,7 mingtani tashkil etdi.

**2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi 77,9 % ga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** 2019-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 75,6 % ni tashkil etgan.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlarning  
asosiy ko'rsatkichlari***(2020-yil yanvar-sentabr oylarida)*

|                           | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan<br>o'sish sur'ati,<br>% da | Aholi jon boshiga<br>ko'rsatilgan bozor<br>xizmatlari hajmi,<br>ming so'm |
|---------------------------|----------------------|-----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| <b>Andijon viloyati *</b> | <b>8 214,7</b>       | <b>104,5</b>                                        | <b>2607,9</b>                                                             |
| Shaharlar:                |                      |                                                     |                                                                           |
| Andijon                   | 4 253,4              | 107,9                                               | 9565,0                                                                    |
| Xonobod                   | 135,7                | 100,4                                               | 3170,6                                                                    |
| Tumanlar:                 |                      |                                                     |                                                                           |
| Oltinko'l                 | 269,6                | 100,7                                               | 1513,7                                                                    |
| Andijon                   | 397,9                | 101,7                                               | 1508,2                                                                    |
| Baliqchi                  | 367,7                | 100,5                                               | 1831,9                                                                    |
| Bo'ston                   | 89,3                 | 100,2                                               | 1236,4                                                                    |
| Buloqboshi                | 193,4                | 100,3                                               | 1354,1                                                                    |
| Jalaquduq                 | 260,1                | 100,9                                               | 1399,3                                                                    |
| Izboskan                  | 300,6                | 101,1                                               | 1261,8                                                                    |
| Ulug'nor                  | 71,9                 | 100,1                                               | 1204,7                                                                    |
| Qo'rg'ontepa              | 289,7                | 101,0                                               | 1340,1                                                                    |
| Asaka                     | 430,9                | 102,1                                               | 1312,1                                                                    |
| Marhamat                  | 249,3                | 100,6                                               | 1439,4                                                                    |
| Shahrixon                 | 411,5                | 101,3                                               | 1372,6                                                                    |
| Paxtaobod                 | 273,9                | 100,8                                               | 1418,2                                                                    |
| Xo'jaobod                 | 219,8                | 100,5                                               | 1992,8                                                                    |

\*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda



*Dastlabki ma'lumotlar*

## 2020-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm

|                         | Hajmi,<br>ming<br>so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % |
|-------------------------|------------------------|-----------------------------------------------|
| <b>Andijon viloyati</b> | <b>2607,9</b>          | <b>102,5</b>                                  |
| <i>Shaharlar:</i>       |                        |                                               |
| Andijon                 | 9565,0                 | 103,6                                         |
| Xonobod                 | 3170,6                 | 101,1                                         |
| <i>Tumanlar:</i>        |                        |                                               |
| Oltinko'l               | 1513,7                 | 101,0                                         |
| Andijon                 | 1508,2                 | 102,2                                         |
| Baliqchi                | 1831,9                 | 101,1                                         |
| Bo'ston                 | 1236,4                 | 100,7                                         |
| Buloqboshi              | 1354,1                 | 100,8                                         |
| Jalaquduq               | 1399,3                 | 101,8                                         |
| Izboskan                | 1261,8                 | 101,5                                         |
| Ulug'nor                | 1204,7                 | 100,8                                         |
| Qo'rg'ontepa            | 1340,1                 | 101,6                                         |
| Asaka                   | 1312,1                 | 102,5                                         |
| Marhamat                | 1439,4                 | 101,2                                         |
| Shahrixon               | 1372,6                 | 101,7                                         |
| Paxtaobod               | 1418,2                 | 101,3                                         |
| Xo'jaobod               | 1992,8                 | 101,0                                         |

2020-yil  
yanvar-sentabr

Andijon viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi




*Dastlabki ma'lumotlar*

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (4253,5 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi.

## 2020-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari %



2020-yil  
yanvar-sentabr

Andijon viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi



### *Dastlabki ma'lumotlar*

Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Asaka tumani (102,1 %), Andijon (101,7 %) va Shahrixon tumanlarida (101,3 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Xonobod shahrida (100,4 %) Bo'ston tumanida (100,2 %) va Ulug'nor tumanida (100,1 %) kuzatildi.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2607,9 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 9565,0 ming so'mdan, Ulug'nor tumanida 1204,7 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlarning jami hajmi 301,5 ming so'mga oshdi.

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**74-228-30-83**

2020-yil  
yanvar-sentabr

Andijon viloyatida xizmatlar  
sohasining rivojlanishi

22